



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA

### HAMKORLIGI

M.I. Nizomova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21331094>

#### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> July 2026

Accepted: 2<sup>nd</sup> July 2026

Published: 13<sup>th</sup> July 2026

#### KEYWORDS

oilaviy tarbiya, ijtimoiy ta'lim, hamkorlik, maktabgacha ta'lim, kompleks Oila, hamkorlik, yig'ilish, individual ishlar, yillik reja

#### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkiloti va Oila hamkorligi, birgalikda olib boriladigan ishlar mazmuni qolaversa, tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan individual ishlar haqida aytib o'tiladi. Maqolada, shuningdek, qo'shma tadbirlar, ota-onalar uchun maslahatlar tashkil etish va oila va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatishning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolaning yakuniy qismida bolalarni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ta'lim va hayotga tayyorlashda oila va o'qituvchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlarining muhimligi ta'kidlangan.*

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) va oila hamkorligi bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Bola tarbiyasida oila birinchi va eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. MTT esa oilada boshlangan tarbiya va ta'limni ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi. Shu sababli ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning intellektual, jismoniy, ma'naviy hamda axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'limda oila va ijtimoiy ta'limning o'zaro ta'sirining ahamiyatini o'rganish va anglash ayni damda dolzarb va muhim bo'lib qolishi shu o'rindadir. Oila hayoti va ijtimoiy muhitning qaysi jihatlari bolaning rivojlanishiga eng ko'p ijobiy ta'sir ko'rsatadi? Qanday qilib oila va jamiyatning sa'y-harakatlarini samarali birlashtirib, bolalarning rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratish mumkin? Ota-onalar, o'qituvchilar va jamoat muassasalarining o'zaro aloqasi bolan shaxsining shakllanishida va uning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishida muhim rol o'ynaydi.

MTT va oila hamkorligining asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

ota-onalar yig'ilishlari;

individual suhbat va maslahatlar;

ochiq mashg'ulotlar;

seminar va treninglar;

oilaviy tadbirlar va bayramlar;

uyga tashriflar;

axborot burchaklari va elektron muloqot vositalari.

Hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, bolani tarbiyalashda yagona yondashuvni shakllantirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashdan iborat.

Zamonaviy ta'lim tizimida MTT va oila hamkorligi ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi bolalarning maktabga tayyorgarligini, ijtimoiy moslashuvini va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarning har tomonlama rivojlanishi ularning jismoniy, aqliy, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan barcha ushbu jihatlarida rivojlanishiga imkon beradigan muhitni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu muvaffaqiyatli o'sish va hayotning turli sohalariga moslashish uchun asosdir. Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish - bu bolalar ijtimoiy muhitda atrofdegilar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash jarayonidir. Ushbu ko'nikmalarga muloqot, hamkorlik, nizolarni hal qilish, do'stlik o'rnatish va guruhdagi muammolarni hal qilish qobiliyatlari kiradi. Ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanishi erta bolalikdan boshlanadi va butun hayot davomida davom etadi va ayniqsa maktabgacha va maktab yoshida faoldir.

Shuni ham aytib o'tish joizki, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va Oila hamkorligi muhimdir. Chunki bolaning ta'lim olishida tarbiyachi va ota-ona birdek ma'sul hisoblanadi. Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan quyidagicha fikrlar berib o'tilgan: "Mamlakatimizda shu paytgacha xotin-qizlarni eng ko'p bezovta qilib kelgan masala - maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bu chuqur o'ylangan siyosat bo'lib, yurtimizda uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini mukammal shakllantirish imkonini beradi."

Bugungi kunga kelib Maktabgacha ta'lim tashkilotiga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham "O'zbekiston - 2030" strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda bolalarning har tomonlama kamol topishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, ilk qadam davlat o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Ushbu dasturda rivojlantiruvchi markazlar faoliyati orqali bolalarning mustaqil o'rganishi va o'yin orqali bilim olishi muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek, PQ-4312-son Prezident qarori hamda PQ-2707-son Prezident qarori asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy o'quv muhitini yaratish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va bolalarning erkin rivojlanishini ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Mazkur hujjatlar asosida rivojlantiruvchi markazlarda o'yin muhitini to'g'ri tashkil etish, bolalarning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Oila bolaning birinchi tarbiya maskani bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti ushbu tarbiyani ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi. Shu sababli tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va mas'uliyatga asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yish ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. İlk qadam davlat o'quv dasturi. - Toshkent, 2018.
2. PQ-2707-son Prezident qarori. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3.PQ-4312-son Prezident qarori. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".

4.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Metodik qo'llanmalar va tavsiyalar. – Toshkent.

5.Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi.

6.Pedagogika. – Toshkent: O'zbekiston.

7.UNESCO. Early Childhood Care and Education (ECCE) bo'yicha tavsiyalar.

8.UNICEF. Early Childhood Development bo'yicha materiallar.

